



RISKLAR TASNIFI VA QISHLOQ XO'JALIGI FAOLIYATIGA TA'SIRIDAN SUG'URTA VIY HIMoya QILISHNING USLUBIY JIHATLARI

Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich

TDIU, mustaqil izlanuvchi, i.f.n., dotsent

Email: aleks_4240@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada risklar haqida tushunchaning paydo bo'lishiga nazariy yondashuvlar, riskni ta'sir ko'lami, risk tushunchasiga xalqaro va mahalliy olimlarning nazariy qarashlari, risklarni boshqarish hamda qishloq xo'jaligini risklardan sug'urtaviy himoya qilish uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu maqolada risklarni guruhga ajratish, qishloq xo'jaligida risklarni pasaytirish va uni sug'urtalash masalalari bo'yicha muallifning tavsiyalari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: risklar tasnifi, risklarni boshqarish, riskni kamaytirish, sof darajali risklar, spekulyativ risklar, qishloq xo'jaligi risklari, risklardan sug'urtaviy himoyalash.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ КЛАССИФИКАЦИИ РИСКОВ И СТРАХОВОЙ ЗАЩИТЫ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические подходы к возникновению понятия риска, рамки понятия риска, теоретические взгляды зарубежных и отечественных ученых на понятие риска, а также рекомендации по совершенствованию методологии управления рисками и страховой защиты сельского хозяйства от рисков. В статье представлены рекомендации автора по классификации рисков, снижению рисков и страхованию в сельском хозяйстве.

Ключевые слова: классификация рисков, управление рисками, снижение рисков, чистые риски, спекулятивные риски, сельскохозяйственные риски, страховая защита от рисков.

METHODOLOGICAL ASPECTS OF RISK CLASSIFICATION AND INSURANCE PROTECTION AGRICULTURAL ACTIVITIES

Abstract. The article examines theoretical approaches to the emergence of the concept of risk, the framework of the concept of risk, theoretical views of foreign and domestic scientists on the concept of risk, as well as recommendations for improving the methodology of risk management and insurance protection of agriculture from risks. The article presents the author's recommendations on risk classification, risk reduction and insurance in agriculture.

Keywords: risk classification, risk management, risk reduction, pure risks, speculative risks, agricultural risks, insurance protection from risks.

1. Kirish

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq turli tabiiy va texnogen tusdagi risklar so'ngi yillarda inson hayotiga xavf solishi bilan birga dunyo davlatlari qishloq xo'jaligiga ham keskin ta'siri ortayotganligiga guvoh bo'layapmiz. Bu o'zgarishlar bevosita qishloq xo'jaligi faoliyatiga ta'siri bir tomonlama sezilayotgan bo'lsa, ikkinchidan sanoatning qayta ishslash tarmoqlariga ham ta'sir qilmoqda. Bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri sifatida aytish joizki, ekologiya va atrof-tabiiy muhitga yetkazilayotgan zararni kamaytirish bilan birga qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatiga iqlim o'zgarishlari ta'sirini yumshatish chora-tadbirlarini ko'rish va moslashuvchan moliyaviy mexanizmlarni ishlab chiqish zamon talabiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT ning Iqlim o'zgarishi bo'yicha xalqaro konferensiyasidagi (COP-28) nutqida iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari Markaziy Osiyo davlatlariga tegishli bo'lmay, balki, mintaqaviy muammolar bugungi kunga kelib global darajada masshtabi kengayotganligi ayni haqiqat. Shu bois, iqlim o'zgarishlarini oldini olish, qishloq xo'jaligiga ta'sir ko'rsatayotgan xavf-xatarlarni yuzaga keltirayotgan risklarni kamaytirish chora-tadbirlarini ko'rish muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlab o'tdi.

2. Adabiyotlar sharhi

Iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq risklar va undan sug'urtalashning dolzarbliji borasida xalqaro tadqiqotchilar ham o'z izlanishlarini olib borgan bo'lib, xususan, Ulrich Hess va Peter Hazell o'z tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi riskka asoslangan biznes sohasi hisoblanib, fermerlar ko'pgina bozor konyukturasi va ishlab chiqarish bilan bog'liq risklarga duch kelayotganligi, bu esa ularning daromadlarini yildan-yilga yo'qotilishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, bu kabi xavfli risklarga: yomon yoki noqulay ob-havo, zararkunandalar va turli kasalliklar natijasida qishloq xo'jaligi hosilini yo'qotish hamda kutilmagan tarzda bozor narxlarining o'zgarishidir. Ko'p hollarda fermerlar ekstremal ob-havo hodisalari tufayli qurg'oqchilik, yong'in va yangi turdag'i zararkunandalar paydo bo'lishi natijasida ekinlar hosilini yoki chorva hayvonlari nobud bo'lishi bilan bog'liq risklarga uchramoqda. Bu kabi risklar bevosita fermer xo'jaliklarini moliyaviy qiyinchiliklarga tushib qolishiga va o'z vaqtida yordam ko'rsatilmasa epizodik gumanitar inqirozlarga ham olib kelishi mumkinligi borasida to'xtalib o'tgan [1].

Tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqqan holda dastlab risk tushunchasini ko'rib chiqish va izohlashni o'z oldimizdga asosiy vazifa qilib belgilab oldik.

"Risk" tushunchasi (lotincha "kesish", "kamaytirish", kamaytirish" yoki qadimgi yunoncha "xavf" so'zidan) noxush hodisalarning yuzaga kelishi ehtimoli va oqibatlarining kombinatsiyasidan tashkil topgan. Risk – ko'pincha kimgadir zarar yetkazish yoki yo'qotishi mumkin bo'lgan, kutilmagan hodisalar ham deb ataladi, bunday hodisani "Risk (xavf) omili" deb atash ham o'rini [17].


"Risk" tushunchasini deyarli 100 yil oldin ta'lim sohasiga fan sifatida kiritgan olimlardan Frank H. Knight hisoblanadi. Ushbu olimning fikriga ko'ra, risk bu insoniyat uchun ma'lum bo'lgan yoki bo'limgan ehtimollik bilan sodir bo'ladigan hodisalardir. Risk omili bu keljakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqe va hodisalarning ehtimolliklarini hisoblashni talab etadi. Noaniqlik esa ehtimollikni aniqlashning imkonи bo'limgan holatni anglatadi [3].

Judy Feldman Anderson va Robert L.Brownlar tomonidan risk tushunchasiga alohida ilmiy jihatdan yondashgan bo'lib, "... insonlar doimo xavfsizlikni izlaydilar. Xavfsizlik hissi oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joydan keyingi asosiy maqsad bo'lishi mumkin. Iqtisodiy riskka ega bo'lgan shaxs hozir va kelajakdag'i ehtiyojlarini qondira olishiga ishonchi komil. Iqtisodiy risk – iqtisodiy xavfsizlikni yo'qotish ehtimolidir. Iqtisodiy risklarning aksariyati kutilgan natijasining o'zgarishidan kelib chiqadi" [4].

Rossiyalik mualliflar V.M.Vyatkin, V.A.Gamza, F.V.Maevskiyalar tomonidan yozilgan "Risk-menеджмент" nomli darsligida risk tushunchasiga alohida ta'rif berilgan bo'lib, xususan, "Risk – bu ko'p o'lchovli, ko'p omilli va vaqt nuqtai-nazaridan o'zgaruvchan hodisa. Risk bilan bog'liq xavf-xatarlarni chuqquroq o'rganish zaruriyati texnologik taraqqiyotning bosh omilidir. Xavfning yo'qligi bevosita risklarni boshqarishning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi" [5].

3. Tahlil va natijalar

Sug'urta faoliyatida uchraydigan risklar sohasida tadqiqotlar olib borgan olimlardan Devid Blandning "Sug'urta, tamoyillar va amaliyot" nomli darsligida risklarning bir qancha ta'riflarini bergan: risk – kutilmagan voqe'a-hodisalarning yuzaga kelish ehtimoli; risk – xavf-xatarlarning yig'indisi; risk – bu oldindan aytib bo'lmaydigan, haqiqiy natijalar kutilganidan farq qilish jarayoni; risk – turli yo'qotishlarning noaniqligi; risk – yo'qotish ehtimoli [9].




1-rasm. Risk ta'siri shakllarining guruhlanishi [6].

Har qanday sharoitda riskning ta'sir etish shakllari mavjud bo'ladi va quyidagilardan iborat, ya'ni: riskni bartaraf etish; riskni kamaytirish, riskni boshqarish

hamda riskni uzatish. Albatta ushbu to'rtta risk shakllari ham o'z qatorida bir necha ta'sir mezonlaridan tashkil topgan (1-rasm).

Rossiyalik S.I.Ojegova va N.Yu.Shvedovalar tomonidan tayyorlangan rus tili lug'atida berilgan ta'rifga ko'ra, "Risk" – bu xavf yoki muvaffaqiyatsizlik ehtimoli, turli xavflar ehtimolligi, omadsizlik yoki kutilayotgan xavflar, xavf-xatar holatida harakat qilishdir [7].

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida uchraydigan risklarning klassifikatsiyalanishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, iqtisodiyotda risklar sof va spekulyativ darajada uchraydi. Biroq, tadqiqotchi tomonidan iqlim o'zgarishi va qishloq xo'jaligi bilan bog'liq risklar ta'siriga e'tibor qaratilmagan (2-rasm).



2-rasm. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida uchraydigan risklarning klassifikatsiyalanishi [8].

Mahalliy olimlardan X.M.Shennaev boshchiligidagi yozilgan "Sug'urta ishi" nomli o'quv qo'llanmasida "Risk" tushunchasiga alohida ta'rif berilgan bo'lib, ya'ni risk – bitta kutilayotgan hodisa bo'yicha xavfning yuzaga kelishi. Risk tushunchasi ko'rinishlarining xilma-xilligi uni sodir bo'lishi natijasida yuzaga kelgan oqbatlarning og'irligi, riskni ro'y berishi sababli paydo bo'lgan zararlarni mutlaq tugatishni imkoniyati bo'limganligi, sug'urta ishini tashkil etish uchun asos yaratadi. Risk – bu konkret hodisa yoki hodisalar yig'indisi bo'lib, ular sodir bo'lgan taqdirda sug'urta kompaniyasi qoplamlalar to'laydi [10].

Sug'urta faoliyatida risk va risklar tranformatsiyasi bo'yicha izlanishlar olib borgan olimlardan T.M.Baymuratov va D.M.Sultanovlar ham ushbu masalaga atroflicha to'xtalib o'tgan holda, risklarni guruhlashtirgan holda, risklarni boshqarish mexanizmi qaror topib, korxonaning pul oqimlarini samarali yo'naltirish imkonini yuzaga keltirgan bo'lsada, mazkur mexanizm orqali nazorat qilib bo'lmaydigan risklar yuzasidan ishonchli himoyani sug'urta faoliyatini risklar transferini qo'llash amaliyotini egallab borayotganligini e'tirof etishgan [11].

"Riskologiya" nomli darslik muallifi T.M.Baymuratov tomonidan ham "risk" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan bo'lib, zamonaviy jamiyatda risk ishlab chiqarish nazariyasi bo'lib, ijtimoiy, ekologiya, huquq va boshqa fanlar bilan bevosita bog'liq bo'lib o'ziga xos metodologiyaga ega fanlar bilan bevosita bog'liq. Risklarni turlarga bo'lgan holda o'rganilgan va ta'riflagan [12].

Bizning tadqiqotlarimiz bevosita qishloq xo'jaligi risklaridan sug'ortalash faoliyatiga qaratilganligi bois, aynan bu borada ham izlanishlar olib borgan tadqiqotchilarning fikr-mulohazalarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda ta'kidlash zarurki, qishloq xo'jaligi sohasida risklarning yuzaga kelish sabablarini, ko'rilgan zararlar miqdorini aniqlash, ayniqsa, sug'urta hodisalarini qayd etib borish, ya'ni sug'urta statistikasini yaratish borasida muammolar yig'ilib qolgan. Bu muammolarni hal etish qishloq xo'jaligida risklarni boshqarish uslubiyotini takomillashtirish va eng muhimi ehtimol tutilgan zararlar miqdorini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy manbaalarga ko'ra, V.A.SHerbakov va Ye.V.Kostyaevlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, qishloq xo'jaligini risklardan sug'ortalash ishlari XVIII-XIX asrda boshlangan bo'lib, ilk sug'urta shartnomalari asosan, chorva hayvonlarini o'g'irlikdan va turli xavfli yo'qotishlardan himoyalash maqsadida tuzilgan. Keyinchalik, iqtisodiy rivojlanish bosqichlari davom etishi bilan chorva hayvonlarini turli kasalliklardan va boshqa turdag'i tabiiy ofat bilan bog'liq risklardan sug'ortalash ishlari takomillashib borgan [13].

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan V.V.Shaxov, Yu.T.Axvedianilar ham o'z tadqiqotlarida qishloq xo'jaligini risklardan sug'ortalash borasida quyidagi nazariy fikrlarni keltirib o'tgan, ya'ni, qishloq xo'jaligi ekinlari va ko'p yillik ekinlarni sug'ortalashda sug'urta ob'ekti bo'lib, asosan ekinlar hosili va uni yetishtirish uchun sarflanadigan xarajatlar hisobga olinadi. Sug'urta shartnomasiga ko'ra, qishloq xo'jaligi korxonalari qaysi tabiiy-iqlim zonasida joylashganidan qat'iy nazar, ularni teng himoya qilishni ta'minlovchi deyarli barcha turdag'i tabiiy ofatlarni qamrab olishi lozim [14].

MDH olimlarining fikrlariga qo'shilgan holda ta'kidlash joizki, asrlar davomida insoniyatni taajublantruvchi tabiat hodisalari yildan-yilga ortib bormoqda. Shu bois, bugun insoniyatning oldida turgan muhim vazifalardan biri iqlimiyl risklarga tayyor turish va unga moslashish muhim ahamiyatga ega.

Bu borada mamlakatimiz olimlari ham o'z fikrlarini bayon etganlar, ya'ni, "qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashda sug'ortalashning asosiy maqsadi, tabiat injiqqliklariga qarshi moliyaviy himoyani taklif etishdan iborat. Keyingi yillarda fermerlar har xil tabiiy ofatlar tufayli ko'rgan zararlari uchun sug'urta

shartnomalari asosida sezilarli moliyaviy yordam olmoqdalar va ular sug'urtaning mohiyatini chuqurroq his qilmoqdalar” [15].

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda moliyaviy instrumentlar qatorida sug'urta faoliyatining ham o'z o'mni mavjud. Shu jihatdan, yuqoridagi iqtisodchi olimlarning fikrlariga qo'shilgan holda qishloq xo'jaligi korxonalarining yetakchisi hisoblangan fermer xo'jaliklarini tabiiy ofatlar bilan bog'liq risklardan sug'urtalashda sug'urta kompaniyalari bilan moliyaviy munosabatlarni yanada takomillashtirishni talab etadi.

M.Qosimov, X.Abdusamatov, I.Islomov va N.Xudoyberganovlar qishloq xo'jaligi faoliyatiga ta'sir etuvchi iqlim o'zgarishlari ta'siridan himoyalanishda sug'urta tizimining ahamiyati borasida o'z tadqiqotlarida to'xtalib o'tgan holda “qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish jarayonida ro'y beradigan kuchli shamol, bo'ron, do'l, kuchli yomg'ir, yong'in, yashin urishi, qurg'oqchilik va garmsel, tuproqning o'ta namligi, kuchli qor yog'ishi, havoning past harorati, suv sathining past bo'lishi, suv sathining baland bo'lishi, zararkunandalar, ekinlar kasalliklari kabi sug'urta tavakkalchiliklari hisoblanadi va bu kabi hodisalardan sug'urtalash lozim” deb ta'kidlab o'tgan [16].

4. Xulosa.

Olib borilgan tadqiqotlarning dalolat berishicha, qishloq xo'jaligi tarmog'i mamlakatimiz sanoati ishlab chiqarish korxonalarini xom ashyo bilan ta'minlashda muhim tarmoq hisoblanadi. Biroq, barchamizga ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va oxirgi iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan davrda turli (iqlimiyl, tabiiy, texnogen, ekstremal) risklarga bog'liq. Ushbu risklarning qishloq xo'jaligi faoliyatiga ta'sirini yildan-yilga ortishini hisobga olgan qishloq xo'jaligi risklaridan sug'urtalashning ob'ektiv zaruriyati muallif tomonidan asoslandi. Qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalash faoliyatini samarali tashkil etishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- qishloq xo'jaligini sug'urtalashga bo'lgan ehtiyojni o'rganish maqsadida anketa-so'rovnomalari orqali talabni aniqlash;
- mamlakat hududlarining iqlimiyl xususiyatlarini o'rganish asosida yangi sug'urta xizmatlarini ishlab chiqish;
- hududlarning tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlarini o'rganish asosida aktuar hisoblarga tayangan holda differensial tariflarni ishlab chiqish;
- qishloq xo'jaligi risklaridan sug'urtalash borasida kafolatli sug'urta xizmatlarini ko'rsatishni ta'minlash;
- qishloq xo'jaligi risklaridan sug'urtalashda raqamli platformalarni joriy qilish;
- qishloq xo'jaligi risklaridan sug'urtalashda ishtirok etuvchi kompaniyalar uchun yagona platformani shakllantirish va boshqalar.

5. Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT ning Iqlim o'zgarishi bo'yicha xalqaro konferensiyasidagi (COP-28) nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/6897>

2. Ulrich Hess, Peter Hazell. Innovations and Emerging Trends in Agricultural Insurance. Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH.

3. Найт Ф.Х. Риск, неопределенность и прибыль / Пер. с англ. - М.: Дело, 2003. - С.15-17.
4. Judy Feldman Anderson, FSA and Robert L. Brown, FSA. RISK AND INSURANCE. Copyright 2005 by the Society of Actuaries. P-21-05. Printed in U.S.A. SECOND PRINTING.
5. Риск-менеджмент: учебник / В.Н.Вяткин, В.А.Гамза, Ф.В.Маевский. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2016. – С 8.
6. Страхование: Принципы и практика/Составитель Дэвид Бланд. Учебное пособие. Пер.с.англ. М.: 2000. С.27.
7. С.И.Ожегова, Н.Ю.Шведова. Толковый словарь русского языка [Текст]: 72500 слов и 7500 фразеологических выражений / С. И. Ожегов, Н. Ю. Шведова; Российская АН, Ин-т рус. яз., Российский фонд культуры. - 2-е изд., испр. и доп. - Москва: Азъ, 1994. – 907.
8. Коржев Р.Ю. Риски хозяйствующих субъектов: виды, оценка, страхование. Монография. / Р.Ю.Коржева. – М.: Дашков и Ко. 2008. – 76 с.
9. Страхование: Принципы и практика/Составитель Дэвид Бланд. Учебное пособие. Пер.с.англ. М.: 2000. С.27.
10. X.M.Shennaev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, I.G'.Kenjaev. Sug'urta ishi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti. Toshkent-2014.: 23-б.
11. Т.М.Баймуратов, Д.М.Султанов. Суғурта фаолиятида рисклар трансформацияси: Монография. -Т.: "Иқтисод-Молия", 2021. – 30-31 бетлар.
12. Т.М.Баймуратов. Рискология: Учебник. 1-часть. – Т.: Иқтисод-Молия, 2023. – 22-бет.
13. В.А.Щербаков, Е.В.Костяева. Страхование: учебное пособие. М.:КНОРУС, 2008. С.6.
14. В.В.Шахов, Ю.Т.Ахвлемидани. Страхование: учебник для студентов. – 3-е изд. М.: ИНИТИ-ДАНА, 2009. С.258-259.
15. О.Олимжонов, Т.Фармонов, П.Қосимбеков, С.Сирожиддинов, М.Қосимов, И.Рафиқов. Фермерлик фаолиятининг ҳуқуқий ва молиявий асослари. Монография. Тошкент "Университет" 2005 й.102-бет.
16. М.Қосимов, Ҳ.Абдусаматов, И.Исломов ва Н.Худойберганов. Ўзбекистонда фермер ҳўжалигини юритиш асослари. Қўлланма. Тошкент "Voris-Nashriyot" 2007 й. 54-55 бетлар.
17. <https://ru.wikipedia.org/wiki> -сайти маълумотлари.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

